

O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAFSIZLIGINING MA'NAVIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Beksanarova Anara Bauirjan qizi

Chirchiq davlar pedagogika universiteti, 1-kurs talabasi.

Toshtemirov Rustam Abdurashidovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi.

rustambek22091985@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda axborot xafsizligi, ma'naviy va huquqiy asoslari va ular haqidagi moddalar va qonunlarga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axborot xavfsizligi, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya, Elektron hukumat.

MORAL AND LEGAL FOUNDATION OF INFORMATION SECURITY IN UZBEKISTAN

ANNOTATION

This article focuses on the moral and legal foundations of information security in Uzbekistan and articles and laws about them.

Key words: *Information security, information technologies, telecommunications, Electronic government.*

МОРАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье основное внимание уделяется морально-правовым основам информационной безопасности в Узбекистане, а также статьям и законам о них.

Ключевые слова: Информационная безопасность, информационные технологии, телекоммуникации, Электронное правительство.

Umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot-komunikatsiya texnologiyalarini nafaqat mamlakatlar iqtisodiyotini va boshqa sohalariga joriy etish balki axborot tizimlari xafsizligini ta'minlash ham taqazo etiladi.O'zbekiston axborot komunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro xafsizlik tizimida Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib qo'shiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yili 27-iyundagi PQ-1989 son va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013 yil 16 sentyabrdagi 250- son Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qomitasi huzuridagi Axborot xafsizligini ta'minlash markazi tashkil etilgan.Tashkilotda axborot xizmatini tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yishda uning huquqiy asoslari g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.Axborot xizmatining huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari tashkil etadi.

Mamlakatimizda jamoatchilik bilan aloqlarni yo'lga qoyish va shu maqsadda tashkilotlarda axborot xizmatlarini tashkil etishda dastlab Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 22 sentyabrida qabul qilingan "Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish cho'ra-tadbirlari to'g'risida" gi 203-qarori muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilgandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasininh 2018-yil 15-fevral kuni e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish cho‘ra-tadbirlari to‘g‘risida” gi 125-sonli qarori sohani yanada takomillashtirishda muhim qadam bo‘ldi.

Axborot xizmatining huquqiy asoslarini belgilovchi navbatdagi qonun O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida” gi qonuni bo‘lgani alohida qayd etish lozim.Qonunning 10-moddasi “Davlat hokimiyati boshqaruvi organlarining axborot xizmati” deb nomlanadi.Unda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni tayyorlash hamda tarqatish vazifalarini bajaruvchi, shuningdek ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan hamkorlikni ta’minlovchi tarkibiy bo‘linmasi yoxud ushbu vazifalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxs davlar hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot xizmatidir, deb belgilab qo‘yilgan.

Jahon tajribasiga ko‘ra, rivojlamgan davlatlarda tashkilotlar tomonidan asosiy axborotlar aynan axborot xizmati tomonidan tarqatilishi yo‘lga qo‘yilgan.Axborot xizmati avvalo jurnalistlar kabi axborot to‘plashi, qayta ishlashi talab etiladi.So‘ng o‘sha axborotni ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilishi mumkin.Demak, bu o‘ta mas’uliyatli ishlarni amalga oshirishida axborot xizmati uchun o‘sha qonun g‘oyat muhim asosdir.

Axborot xizmati xodimi axborot to‘plash va tarqatish borasida jurnalistlar kabbi faoliyat ko‘rsatar ekan, O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida” gi qonuni ham uning huquqiy asoslaridan hisoblanadi.U ham jurnalistning majburiyatlarini bilishi va unga amal qilishi zarur.Qonunning 6-moddasi “Jurnalistning majburiyatları” deb nomlanib, unda bajarishi shart bo‘lgan majburiyatlar ham belgilanib qo‘yilgan.

Axborot xizmati davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot tarqatishning qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa usullaridan ham foydalananishi mumkin.Qonunda axborot xizmatining faoliyatini tashkil etish

tartibi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan belgilanishi ham qayd etilgan. Aytish joizki, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonunning nomlanishidan ham ko‘rish mumkinki, qonun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur qonun ham soda va tushunarli tilda yozilganligi bilan barcha uchun birdek tushunarlidir. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida davlar xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi xamda davlar organlari va mansabdar shaxslar jamiyati va fuqarolar oldida ma’sul ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Internet tarmog‘i milliy segementida axborot xafsizligi hodisalarining oldini olish bo‘yicha o‘zaro amaliy ishlarni tashkil etish maqsadida axborot xafsizligi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, xaborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlar qomitasi huzuridagi Axborot xafsizligini ta’minlash markazi.

Mazkur markazning asoiy maqsadi etib, “Elektron hukumat” tizimining axborot tizimlari, resurslari va ma’limotlar bazalarining, shuningdek internet tarmog‘i milliy segmentining axborot xafsizligini ta’minlash sohasidagi normative-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, davlar organlari tizimlari va axborot resurslarida axborot xafsizligini ta’minlash belgilangan.

Markaz xodimlari axborot xafsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va to‘plash bilan shug‘ullanadilar. “Elektron hukumat” tizimi, resurslari va ma’lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta’minkaydigan tashkiliy va dasturiy-texnik yechimlarni samarali qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqishda ishtiroy etadilar.

“Elektron hukumat” tizimi axborot xafsizligini ta’minlashninh me’yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarini ishlab chiqish ham Markazning maqsad vazifalari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toshtemirov R.A., Virtual haqiqat va uning insonga ta'siri, Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, Xalqaro ilmiy-metodik jurnal, 2-qism, 2023, 306-309 B., <http://interscience.uz>
2. Toshtemirov R. A., (2023). Media education is an important factor in protecting young people from negative information. SCHOLAR, Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 1, ISSUE 29, 2023, Pp 187–195.
3. F Muminov, Sh.Barotov, Ochiq axborot tizimlarida axborot -psixologik havfsizlik, Toshkent -2013.
4. А.В.Федоров, Медиаобразование и Медиаграмотность, 2011.
5. Murotova N., Jurnalistika media va axborot savodxonligi, Toshkent -2019.